

**ISAJON SULTON TARIXIY ROMANLARIDA “HAYOT VA O‘LIM”  
LINGVOKONSEPTI**

**Rasuljon Tojimatov**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dosent v.b.  
University of Business and Science oliy ta‘lim muassasi

**Annotatsiya.** Bu maqolada “hayot” va “o‘lim” tushunchalarining lingvistik, semantik, frazeologik va madaniy jihatlari tahlil qilinadi. Konseptual tahlil orqali bu atamalarning turli tillarda (ayniqsa, o‘zbek va boshqa turkiy tillarda) ifodalanishi, ularga bog‘langan idiomalar, maqollar, badiiy matnlardagi metaforik ishlatilishlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada “hayot” va “o‘lim”ning inson ongi va milliy madaniyatdagi aks etishi, ularning lingvistik ma‘no maydonlari hamda falsafiy-qiyosiy talqinlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konsept, lingvokonsept, metafora, odatiy metaforalar, jonlantirish, sinestetik metaforalar, hayot, o‘lim, semantika, frazeologiya.

**Annotation.** This article analyzes the linguistic, semantic, phraseological and cultural aspects of the concepts of “life” and “death”. Through conceptual analysis, the expression of these terms in different languages (especially Uzbek and other Turkic languages), the idioms associated with them, Proverbs, metaphorical uses in artistic texts are considered. The article covers the reflection of “life” and “death” in human consciousness and national culture, their fields of linguistic meaning and philosophical-comparative interpretations.

**Keywords:** concept, linguoconcept, metaphor, typical metaphors, revitalization, synesthetic metaphors, life, death, semantics, phraseology.

1928-yilda S.Askoldov tomonidan “Konsept va so‘z” maqolasida ilk bor ilmiy iste‘molga kiritilgan,<sup>1</sup> XX asrning 90-yillaridan boshlab fanda keng qo‘llanayotgan konsept termini bugungi tilshunoslikda ham markaziy tushunchalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyo tilshunosligida konsept tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, S.Askoldov konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko‘ra konseptlarni yaratish va qabul qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi, deya ta‘kidlasa, Y.S.Stepanov konseptning mental jihatlari

<sup>1</sup> Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. –Москва: Академия, 1997.

ochishga harakat qilgan<sup>2</sup>. Olim konseptni lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi: "Konsept – bu inson ongidagi madaniyat yig'indisi; insonning mental dunyosiga madaniyat tarzida kirgan narsa; madaniyat boyliklarining ijodkori"<sup>3</sup> sifatida baholaydi. Bulenvile fikricha esa, aql bilan shakllangan barcha konseptlar g'oyadir. Olimning nazarida, konsept – o'sha jamiyatning ideologiyasidir. Bu jihatdan konsept nafaqat madaniyatshunoslik, balki falsafa fanining ham o'rganish obyektini sifatida maydonga chiqadi.

Demak, shundan kelib chiqib aytishimiz mumkin-ki, har qanday obyekt konsept bo'la olmaydi. Konseptga Shvedova quyidagicha ta'rif beradi: "Konsept – tushuncha ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda aniqlanuvchi, kishilar umrining muhim ruhiy-aqliy qirralarini akslantiruvchi o'z tarixiy ildizi va o'tmishiga ega bo'lgan, xalq va millatlarning umumiy tajribasini ifodalovchi mazmundir"<sup>4</sup>.

Konsept terminiga o'zbek tilshunoslaridan N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.Mamatovlar tomonidan ham izohlar berilgan. Bizningcha ham, konsept ko'p jihatli, ko'p qatlamli mental tuzilma – strukturadir. U ayni paytda ruhiy semantikasi kognitivlashgan va lingvomadaniy omil hamda sabablar orqali namoyon bo'la oladigan jihat, tarz va jarayondir.

Badiiy konsept va haqqoniy hayotning bilish konsepti o'rtasida yana bir muhim farq bor. Ilmiy izlanuvchilar his-tuyg'u, xohish va istak, umuman, ilm konseptiga bee'tibor holda qaraydilar. Vaholanki, badiiy konsept tuyg'ularga ham, ilmga ham bir xil muvozanat bilan qaraydi, uni teng holda tutib ish ko'radi. Tushunchalar, g'oyalar, aslida, his-tuyg'ular, istak va xohishlarni ifodalay oladigan yuqori, undan-da oliy belgilarini ham ifodalash kuchiga egadir.

Ma'lum bo'ladiki, konsept badiiyatda azaldan ma'lum bo'lgan birgina tushunchani hislar va estetik kuch orqali yangidan qayta dunyoga keltirishga erisha oladigan, bunga qodir bo'lgan shuur-idrok tushunchalarini shakllantirib ifodalaydi. Badiiy konsept tuzilishida umumiy va individual mazmuniy ma'nolarni, ya'ni, emotsionallikni baholovchi salbiy, ijobiy va bo'yoqdorlik holatlarini ajratib ko'rsata oladi va bu uning o'ziga xos ifoda yo'li bo'ladi.

konsept atamasini kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazardan juda ko'p tilshunos olimlar, jumladan, D.Lakoff, R.Langaker, M.Jonson, Ch.Filmor, S.Kubryakova, A.P.Babushkin, J.R.Anderson, P.Zekendorf, S.Shifer kabi olimlar o'rgangan bo'lsa; psixolingvistikada A.A.Leontev, A.A.Zalevskaya; lingvomada-niyatshunoslikda Y.S.Stepanov, N.D.Arutyonova, V.I.Karasik, V.V.Vorobyov, V.V.Kolesov, S.X.Lyapin<sup>5</sup> va boshqa olimlar tadqiq etganlar.

<sup>2</sup> Сайидрахимова Н., Қобулова У. Лингвокультурология – тилшуносликнинг алоҳида соҳаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №4. – Б.87-91.

<sup>3</sup> Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Языки русской культуры, 1997. – С. 40.

<sup>4</sup> Шведова Н.Ю. Избранные работы. – М, 2005.

<sup>5</sup> Усманова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент, 2014. – Б.43.

Bugungi o'zbek tilshunosligida eng ko'p tadqiq etilayotgan antropotsentrik yo'nalishdagi sohalardan biri lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik sohalari ekanligi shubhasiz. Konsept ana shu ikki muhim tarmoqdan o'sib chiqqan ilmiy atama bo'lib, uning milliy-mental tabiatga egaligi, inson tafakkuri hosilasi o'laroq tatbiq qilinishi bu ikkala fan sohasining ham umumkesishuv nuqtalari bo'lib xizmat qiladi. Konsept istilohi bugungi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlarining asosini tashkil qiladi. Antropotsentrik paradigma asosida shakllanayotgan lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika fanlarida alohida mavqeda o'rin tutadi<sup>6</sup>. "Konsept" atamasi nafaqat tilshunoslikning, balki adabiyotshunoslik, falsafa, estetika fanlarining ham o'rganish obyektlaridan biri sanaladi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab konsept tushunchasi ongimizda aks etadigan jarayonlarni ifodalovchi birlik sifatida qo'llana boshladi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept insonning bilimi va tajribasini, milliy-mental lisoniy ongini, butun olam manzarasini, miyaning konseptual va til tizimini, ruhiy-psixologik holatini ifodalovchi vosita sifatida o'rganiladi<sup>7</sup>.

Ingliz lug'atida konsept qolipga, stereotipga, umumqabul qilingan fikr, nuqtayi nazarga yaqin turadi.

Mohiyat va dalillar konsept ma'nosiga monand bo'lib, dunyo haqidagi ma'lumotlarning boshqa bir ma'lumotlar bilan moslashgan shakli, tasavvur qilingan bilimlar tizimlanishidir.

Yuqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki, konsept haqida tilshunoslikda yagona ta'rif keltirilmagan. Natijada, fanda konseptni tushunishda uchta asosiy yondashuv kuzatildi: lingvistik, kognitiv, madaniyatshunoslik nuqtayi nazardan yondashuv.

A.M.Nadyojkin konsept haqidagi ilmiy talqinlarda juda ham mavhumlik, har xillik mavjudligini ko'rsatib o'tadi, konsept nazariyasi metodologik jihatdan jiddiy tadqiq etishga muhtoj ekanligini aytadi.

Kognitiv tilshunoslik va pragmatika muammolari bilan jiddiy shug'ullangan o'zbek tilshunosi prof. Sh.Safarov<sup>8</sup> ham negadir konsept haqida gapirar ekan, uning lingvomadaniy va etnomilliy jihatlariga etarli e'tibor bermaydi.

To'g'ri, konsept tafakkurga oid, mazmuniy, mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy unsurdan tamoman xoli bo'lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir. Bu masala tadqiqiga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratgan S.G.Vorkachev hatto "lingvokonseptning yetakchi farqlovchi belgisi uning etnomadaniy belgisi bo'lishi" ekanligini ta'kidlaydi<sup>9</sup>. Taniqli tilshunos olim

<sup>6</sup> <http://elibrary.ru/item.asp?id=41692356>: Ценностно-смысловое пространство художественного текста: лингвокогнитивное измерение.

<sup>7</sup> <http://elibrary.ru/item.asp?id=41692356>: Ценностно-смысловое пространство художественного текста: лингвокогнитивное измерение

<sup>8</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.17-18.

<sup>9</sup> Воркачев С.Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. – №4. – С.76.

Nizomiddin Mahmudov o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..."<sup>10</sup> nomli maqolasida konseptga rus tilshunosligida berilgan ko'pdan-ko'p ta'riflar orasida V.A.Maslova tomonidan ilgari surilgan ta'rif haqiqatni aniqroq aks ettiradi, deya e'tirof etgan.

Uningcha, konsept, "bu – lingvomadaniy o'ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir"<sup>11</sup>. Yana bir tilshunos olim N.E.Krasavskiy esa konseptni quyidagicha tasniflaydi:

Struktur-semantik konsept – leksik, frazeologik konseptlar; diskursiv konsept – ilmiy, badiiy va kundalik konseptlar, ya'ni oddiy konseptlar; ijtimoiy konsept – universal, etnik, individual va guruhli konseptlar<sup>12</sup>.

Bundan tashqari, rus tilshunosi L.V.Adonina konsept istelohiga oid maqolasida termin haqida taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta ta'rifini keltirib, tahlilga tortadi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, konsept termini o'n ikkita fikrlar mazmunini qamrab olgan bandlar bo'yicha ilmiy-nazariy jihatdan tasnif qilingan. Konsept termining, olim fikricha, standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid konseptlar, shaxsiy konseptlarga; qo'llanilishiga ko'ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga, ulardan tashqari, yana bir necha guruh ko'rinishlarga bo'linishiga guvoh bo'lamiz<sup>13</sup>.

Konsept terminiga o'zbek tilshunoslaridan N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.Mamatovlar tomonidan ham izohlar berilgan<sup>14</sup>. Bizningcha ham, konsept ko'p jihatli, ko'p qatlamli mental tuzilma – strukturadir. U ayni paytda ruhiy semantikasi kognitivlashgan va lingvomadaniy omil hamda sabablar orqali namoyon bo'la oladigan jihat, tarz va jarayondir.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton o'zbek adabiyotining taniqli vakili bo'lib, uning tarixiy romanlarida inson hayotining asosiy qarama-qarshiliklari sifatida namoyon bo'ladi va ular orqali insoniyatning mavjudligi, ma'nosi va qadriyatlari chuqur tadqiq qilinadi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotining zabardast vakili Isajon Sulton romanlaridagi ayrim badiiy tasvir vositalarining lisoniy xususiyatlarini tahlil qilish orqali bu

<sup>10</sup> Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – №5. – Б.3-16.

<sup>11</sup> Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2008. – С.50.

<sup>12</sup> Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах: Монография. – Волгоград: Перемена, 2001. – 495 с. /<http://elibrary.ru/item.asp?id=41692356>: Ценностно-смысловое пространство художественного текста: лингвокогнитивное измерение/ <http://elibrary.ru/item.asp?id=41692356>: Ценностно-смысловое пространство художественного текста: лингвокогнитивное измерение/

<sup>13</sup> Adonina L.V. Methodological assistance of L.F. Mirosnichenko's scientific school for language and literature teachers. в журнале *Paradigmata poznani*, издательство *Vedecko vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ s.r.o. (Прага, Чехия)*, № 2, 2014; Principles of teaching foreign literature in Ukrainian schools the first stage of formation (1991-1995) в журнале *Science and Education f New Limension Hedagogy and Psychology*, № Vol.3, с. 7-10. 2013

<sup>14</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Санзор, 2006; Маматов А.Е. Тилга когнитив ёндашувнинг мохияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағ'ишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б.212; Махмудов Н.Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб...\\ Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. –№ 5. – Б.3-16.

ijodkorlarning til imkoniyatlaridan qay tarzda foydalanish mahoratini o'rganish hamda muayyan til birliklarining nutq individualligini ta'minlashdagi ahamiyatini belgilash oldimizga qo'ygan maqsadning biridir.

Badiiy ifoda, voqelikdagi poetik ko'chimlarning lisoniy tabiatiga bo'g'liq holda, metafora, metonimiya, sinekdoxa va kinoyaning badiiy-estetik va semantik mohiyati, ularning grammatik va stilistik xususiyatlari har bir ijodkorda turlicha individual tarzda ifodalanadi. Shuning uchun ham so'z san'atkoriga nima mavzu haqida yozish emas, uni qay yo'sinda tasvirlash muhimroq sanaladi badiiyatda.

Isajon Sultonning Alisher Navoiy romanida **“G'aroyibu-s-sigar” nomli bo'limida** “hayot” va “o'lim” konseptlari tilning badiiy vositalari orqali ifodalanadi. Bu konseptlar faqatgina biologik jarayonlar emas, balki madaniy, ijtimoiy va falsafiy ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Hayot insonning mavjudligi, uning orzu-umidlari, kurashlari va g'alabalari bilan bog'liq. Qahramonlarning kurashi va ularning yutuqlari hayotning ma'nosini ko'rsatadi. Tarixiy voqealarda xalqning ozodlik uchun kurashi hayotning abadiyligini ramziy qiladi. Romanda hayot ko'pincha **yangilanish, umid** va ma'no izlash ramzi sifatida tasvirlanadi. Til jihatidan hayot haqida so'zlar yorqin, ijodiy va ilhomlantiruvchi so'zlar orqali ifodalanadi. Misol uchun, **“nur”, “tiklanish”, “umid”** kabi so'zlar tez-tez ishlatiladi. Masalan:

*Har qayon boqsam ko'zim g'a ul quyoshdin nur erur,*

*Har sori qilsam nazar ul oy manga manzur erur.*

(Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida “G'aroyibu-s-sigar”)

O'lim inson hayotining tugashi, lekin shu bilan birga u yangi ma'nolarni ham anglatishi, o'lim ko'pincha qahramonlarning qurbonligi, fidoyiligi yoki tarixiy voqealarning og'irligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. O'lim haqida so'zlar ko'pincha fojiali, og'ir va chuqur ma'noli so'zlar bilan ifodalanadi. Misol uchun, **“zulmat”, “qayg'u”, “vafot”** kabi atamalar ishlatiladi.

Romanda “hayot” va “o'lim” konseptlarini tasvirlashda quyidagi badiiy til vositalardan foydalanadi:

**Tasvirlash:** Qahramonlarning ichki kechinmalari va tashqi dunyosi batafsil tasvirlanadi. Masalan: *Asar muqaddimasidayoq berilgan bahor tasviri o'quvchini Hirot yaqinidagi Hirirud daryosi bo'ylariga, tirik tabiat bag'riga etaklaydi: «Ulug' changlanish jarayoni shunday yuz bergach, har biri o'zining gullarini ochib yuboradi. Tikan ko'k tig'iz gul ochib, Tangriga hamdu sano aytadi. Ajriq ko'kish, taram-taram shokila bo'lib gullaydi. Kurmak uzun bosh chiqaradi. Momoqaymoq ukparini sochadi. Pechakday bezori ham chirmovug'ini uzunasiga tashlab, har bo'g'imida bittadan oq-sariq dastorli maddoh paydo qilib qo'yadi. Beda esa unday maddohlarni g'ujlab tizadi. Bularning bari ifor taratadi, u ifor ham chechak ibodatidir. U onda giyoh o'zining umridan, mavjudligidan rozi bo'ladi, shu damlarga yetgani uchun yaratganga maqtovlar aytadi, hayratlar-u zavqlarni ko'rsatgani uchun «Axir, mavjud emas edim-*

ku? Meni bor aylading, yaratganingga shukr» deydi. Umr qanday ajoyib, hayot qanchalar shodmon! Ular qanchalar zo'r shavq ichida ekanligini birov bilsaydi!»

**Ramzlar sifatida** “Hayot va o‘lim” ramziy ma’nolarda ifodalanadi (masalan, *hayot – daraxt, o‘lim – qish*). Hayot" va "o‘lim" konseptlari til tizimida qarama-qarshilik (antiteza) sifatida namoyon bo‘lishi. Ushbu tushunchalarga oid frazeologik birliklar milliy dunyoqarashni aks ettirishi (masalan: *"Hayot – chiroq, o‘lim – qorong‘u"*). Badiiy matnlarda (folklorda, she’riyatda) konseptlarning ramziy ma’nolari (hayot – yorug‘lik, o‘lim – soya).

Nutqimizda eng keng tarqalgan va ko‘p qo‘llaniladigan ma’no ko‘chish usuli metaforadir. Metafora narsa yoki tushunchalar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida nom (so‘z)ning ko‘chishidir. Metafora (*yunoncha metaphora- ko‘chirish*) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma’lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir. *Masalan: Ilm cho‘qqisi.*

Metaforalarning odatiy, sinestetik metaforalar va jonlantirish tarzida tilshunoslikda farqlanadigan barcha turlari badiiy matnda ijodkor mahorati bilan o‘ziga xos tarzda yaratiladi va kuchli darajada poetik aktuallashadi, badiiy mazmunning ifodalanishida faol ishtirok etadi.

Badiiyat ilmiga doir adabiyotlarda metaforalar mazmuniy jihatdan uch guruhga ajratiladi:

- 1) odatiy metaforalar;
- 2) jonlantirish;
- 3) sinestetik metaforalar<sup>15</sup>.

**Odatiy metaforalar** Ba'zi metafora shunchalik keng tarqalgan-ki, ular hatto metafora ekanliklarini ham ko‘ra olmaymiz. Masalan, hayotning taniqli metaforasini sayohat qilib oling. Uni reklama shiorlarida topamiz: “Hayot - bu sayohat, yaxshi sayohat”, “Safar hech qachon to‘xtamaydi”. Umr qanday ajoyib, hayot qanchalar shodmon. Hayot tarannum, tiriklik shodligidir bahor. Parvardigorim! uni quvvatlantirding, ip tomirlari tuproq bag‘ridan ne‘matlarningni so‘rib oldi. Hayot suvi bag‘rida zilol bo‘lib yugurdi, ko‘kka bo‘y cho‘zdi. Tabiat jonlangan, chappar urgan, quvvai tabiiya borliq bag‘rini gul-u gulshanga burkab anvoyi tuslar ila bezab yuboribdi.

**Jonlantirish** – badiiy nutqda obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. Jonlantirish odamlarga xos bo‘lgan xislatlarini jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko‘chirish orqali paydo bo‘ladigan tasvir usulidir.

Tozalangan taraf esa botayotgan quyosh yog‘dulari bilan nafis yorishib, sariq-qizil tusda yallig‘landi. Quyosh chiqib, yog‘dusi tevarakni zarga bo‘yaganida Mir G‘iyosiddinbek saroyga otlandi. Misol uchun *“Hayot unga kuldi, lekin tez orada yuzini burdi.”* Bu erda hayot inson kabi tasvirlangan. *“O‘lim uning yoniga jim turardi, uning*

<sup>15</sup> Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 73.

*nafasini his qilardi.*” Bu yerda o‘lim inson sifatida tasvirlangan, u yaqin turib, kuzatishi mumkin. *“Hayot – bu safar.”* Bu metaforada hayot yo‘l, sayohat bilan solishtirilgan, unda turli to‘siqlar, manzillar va tajribalar mavjud. *“O‘lim – bu abadiy tun.”* Bu yerda o‘lim tunda bo‘lgani kabi qorong‘u tasvirlangan.

**Sinestetik metafora** – bu turli sezgi organlari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, tatish va his qilish) orqali olingan sezgilarini aralashtirib, yangi va kuchli tasavvurlar yaratishdir. Bu metafora turi orqali hayot va o‘lim kabi murakkab tushunchalarni yanada rang-barang va chuqurroq ifodalash mumkin. Sinestetik metafora insonning hissiyotlarini uyg‘otadi va tasavvur qobiliyatini kuchaytiradi.

**Hayot** – bu yangi pishgan nonning xushbo‘y hidi. Bu metaforada hayot yangi boshlanish, yangilik va to‘yimlilikni anglatadi. Nonning xushbo‘y hidi hayotning yoqimli va ma‘naviy jihatlarini ifodalaydi. **Hayot** – bu qo‘shiqning ohangi, u ba‘zan baland, ba‘zan past. Bu erda hayot musiqaga o‘xshatilgan, uning baland-past tovushlari hayotdagi quvonch va qayg‘ularni ifodalaydi. **Hayot** – bu quyosh nuri, u terining ustida issiq va yoqimli seziladi. Bu metaforada hayot quyosh nuri bilan solishtirilgan, u insonni iliq va quvontiradi.

**O‘lim** – bu sovuq, tiniq muzning shaffofligi. Bu metaforada o‘lim sovuqlik va shaffoflik bilan ifodalangan, u tushunarli, lekin qattiq va befarq. **O‘lim** – bu tunning jimjitligi, u hamma narsani qoplagan. Bu yerda o‘lim tunning jimjitligi bilan solishtirilgan, u hamma narsani qamrab oladi va hech narsa eshitilmaydi. **O‘lim** – bu yonayotgan shamning oxirgi miltig‘i, u asta-sekin yo‘qoladi. Bu metaforada o‘lim shamning oxirgi miltig‘i bilan tasvirlangan, u asta-sekin yo‘qoladi va nihoyatda nozik.

Isajon Sultonning tarixiy romanlarida “hayot” va “o‘lim” konseptlari g‘ayrioddiy holatlar (“G‘aroyibu-s-sigar”) orqali chuqur falsafiy va lingvistik talqinlarda ifodalanadi. Bu konseptlar orqali muallif o‘quvchilarga hayotning ma‘nosi, qadriyatlar va insoniyatning abadiy kurashini yetkazishga intiladi. Tilning badiiy vositalari yordamida bu konseptlar romanlarda jonli, ta‘sirchan va hayratlanarli tarzda ifodalanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani “Adabiyot” 2021-yil.
2. Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. –Москва: Академия, 1997.
3. Sayidrahimova N., Qobulova U. Lingvokulturologiya – tilshunoslikning alohida sohasi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2015. – №4. – B.87-91.
4. Шведова Н.Ю. Избранные работы. – М, 2005.
5. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2002. – B. 73.
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2014. – B.43.
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B.17-18.

8. Воркачев С.Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. – №4. – С.76.
9. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab // O'zbek tili va adabiyoti, 2012. – №5. – B.3-16.
10. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. – Minsk: Tetra Systems, 2008. – S.50.
12. Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах: Монография. – Волгоград: Перемена, 2001. – 495 с.
13. Adonina L.V. Methodological assistance of L.F. Miroshnichenko's scientific school for language and literature teachers. v jurnale *Paradigmata poznani*, izdatelstvo *Vedecko vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ s.r.o. (Praga, Chexiya)*, № 2, 2014; Principles of teaching foreign literature in Ukrainian schools the first stage of formation (1991-1995) v jurnale *Science and Education f New Limension Hedagogy and Psychology*, № Vol.3, s. 7-10. 2013
14. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006; Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? / O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari (prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2012. – B.212;